



SURXON VOHASINING XONLIKLAR DAVRI ME'MORCHILIGI: TARIXIY-MADANIY TAHLIL

Muallif: [Xurramov Alisher]

[Termiz arxeologiya muzeyi]

Email: [xurramovalisher096@mail.ru]

Annotatsiya

Maqolada Surxon vohasida XVI–XIX asrlarda shakllangan me'morchilik yodgorliklari tarixiy-madaniy manbalar asosida ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, vohadagi madrasa, maqbara, masjid, minoralar va savdo inshootlari — Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot va diniy-ma'rifiy jarayonlar kontekstida o'rganiladi. Me'moriy inshootlarning hududiy xususiyatlari, uslubi, bezak san'ati va ularning O'rta Osiyo me'morchilik maktabi bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, me'morchilik, Xonliklar davri, Buxoro xonligi, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros, regional uslub.

Kirish

XVI asrdan boshlab Surxon vohasi Buxoro xonligi tarkibiga kirgan va Xonliklar davrida (Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang'itlar hukmronligi) vohaning siyosiy va madaniy taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilgan. Bu davrda diniy-ma'rifiy hayotning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, davlat tomonidan homiylik qilingan qurilish ishlari natijasida bir qator me'moriy inshootlar — madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, minora va boshqa diniy hamda fuqaroviy binolar qad rostlagan. Surxon vohasidagi bu me'moriy yodgorliklar o'zining hududiy (regional) xususiyatlari, ya'ni mahalliy qurilish an'analari, tabiiy-geografik sharoitlarga mos arxitektura uslublari va o'ziga xos estetik bezaklari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu yodgorliklarda Buxoro



me'moriy maktabining ta'siri bilan birga vohaga xos konstruktiv va dekorativ elementlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shu sababli, Xonliklar davri Surxon vohasi me'morchiligi nafaqat san'atshunoslik yoki arxitektura nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-tarixiy kontekstda ham alohida e'tibor talab etadi. Ushbu maqolada aynan XVI–XIX asrlar oralig'ida Surxon vohasida vujudga kelgan me'moriy yodgorliklar o'rganiladi. Tadqiqot obidalarining arxitektura-kompozitsion tuzilmasi, bezak san'ati, qurilish texnikasi va ularning diniy-ijtimoiy hayotdagi o'rni, shuningdek, Buxoro xonligi davridagi umumiy me'moriy jarayonlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yodgorliklarning hozirgi holati, ularni saqlash va restavratsiya qilish masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

1. Tarixiy kontekst: Xonliklar davrida Surxon vohasi

XVI asrdan boshlab Surxon vohasi Shayboniylar sulolasi, keyinchalik Ashtarxoniylar va Mang'itlar hukmronligi ostida bo'lgan Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan Bu davrda vohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan birga diniy-ma'rifiy hayot ham yuksaldi. Natijada, madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, rabod, ko'priklar kabi inshootlar qurila boshlandi.

2. Me'morchilik xususiyatlari va hududiy o'ziga xoslik

Xonliklar davridagi me'moriy obidalar o'zining geometrik shakllari, gumbazli tuzilmalari, koshinkor bezaklari va peshtoqli fasadlari bilan ajralib turadi. Buxoro me'moriy maktabiga xos bu uslublar Surxon vohasida mahalliy iqlim va qurilish materiallariga moslashgan tarzda modifikatsiya qilingan (Xakimov, 2015). Ayniqsa, pishiq g'ishtdan foydalanish, yog'och ayvonlar va sodda, ammo chuqur ma'noli naqshlar ustunlik qiladi.

a. Material va qurilish texnologiyasi



□ Qurilishda mahalliy xom g'isht, paxsa, ganch, terak yog'ochi keng qo'llanilgan.

□ Sovuq va issiq iqlimga mos qalin devorlar, ichki hovli va soyali ayvonlar ishlatilgan.

□ Gumbazli inshootlar kamroq, ko'proq tekis tomli yoki yarim ayvonli shakllar afzal ko'rilgan.

b. Dekorativ bezaklar

□ Koshinkorlik kam uchraydi. Buning o'rniga ganch o'ymakorligi, sopol bezaklar, geometrik naqshlar va mahalliy naqsh san'ati keng qo'llangan.

□ Binolarning tashqi ko'rinishida soddalik ustuvor bo'lib, estetik go'zallik ichki tuzilishga jamlangan.

3. Muhim me'moriy yodgorliklar

3.1. Sayyid Otaliq madrasasi (Denov, XVII asr)

Ushbu madrasa Buxoro xonligi davrida Denovdagi eng yirik ilm-ma'rifat markazi bo'lgan. Peshtoqining simmetrik kompozitsiyasi, ikki qavatli hujralari va ichki hovli tuzilmasi o'ziga xos tarzda ishlangan (Bulatov, 2007). Xujralar soni 114 ta bo'lib Qur'onning sur'alari soniga taqlidan 114 ta qilingan.

3.2. Sulton Saodat majmuasi

Majmua asosan X-XV asrlarga mansub bo'lsa-da, Xonliklar davrida uning hududida yangi maqbaralar va hovlilar qurilgan. Ushbu qo'shimchalar naqshinkor sirtlar va gumbazli ravoqlar bilan ajralib turadi (Denielyan, 1999).

3.3. Jarqo'rgon minorasi





Garchi ilk bor XII asrda barpo etilgan bo'lsa-da, Xonliklar davrida ta'mirlangan. Uning archasimon shaklidagi g'isht terilishi O'rta Osiyoda kam uchraydigan me'moriy yechim hisoblanadi.

3.4. Iskandar ko'prigi

Bu ko'prik Shayboniylar hukmronligi davrida Bandixonsoydan o'tish uchun qurilgan, strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, Termizni va boshqa janubiy tumanlarni Chag'oniyon va Hisor bilan bog'lovchi qadimgi magistral savdo yo'lida qurilgan. Qumqo'rg'on tumani hududida joylashgan.

4. Karvonsaroylar va savdo me'morchiligi

Xonliklar davrida savdo aloqalari rivojlangan va bu savdoni qo'llab-quvvatlash uchun karvonsaroylar, bozorbop markazlar qurilgan. Denov va Termiz atrofida joylashgan ayrim xarobalar (masalan, Chashma karvonsaroyi) bu borada muhim arxeologik dalillarni beradi.

Xulosa

Xonliklar davrida Surxon vohasida shakllangan me'moriy yodgorliklar o'zining estetik qimmatini bilan bir qatorda, chuqur ijtimoiy, siyosiy va diniy ma'no-mazmunni o'zida mujassam etadi. Bu obidalar vohada shakllangan madaniy muhit, islomiy bilim maskanlarining rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi va jamiyat ijtimoiy tuzilmasining in'ikosi sifatida tarixiy ahamiyatga egadir. Jumladan, masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa diniy-inshootlar diniy-ma'rifiy hayotning markaziga aylangan bo'lsa, karvonsaroylar, ko'priklar va bozorlarga yaqin joylashgan hammomlar vohaning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Surxon vohasining o'ziga xos geografik va madaniy xususiyatlari bu hududda rivojlangan me'moriy obidalarda o'z aksini topgan bo'lib, bu inshootlarda Buxoro, Samarqand va Xiva me'moriy maktablarining umumiy





an'analari bilan birga, mahalliy uslubiy yondashuvlar, dekorativ bezaklar va konstruktiv elementlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu esa, Surxon vohasida mustaqil hududiy me'moriy maktab shakllanganligini taxmin qilishga asos bo'ladi.

Ushbu yodgorliklarni o'rganish, ularning tarixiy shakllanish bosqichlarini aniqlash, arxitektura-estetik tavsiflarini tahlil qilish va ularni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida restavratsiya qilish — bu nafaqat madaniy merosni asrash masalasidir, balki mintaqaviy me'moriy rivojlanish jarayonlarini tizimli o'rganishga ham zamin yaratadi. Ayni paytda ushbu obidalarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish Surxon vohasi tarixining ko'plab qirralarini yoritish, arxitektura tarixida o'ziga xos regional yondashuvlarni aniqlash, shuningdek, tarixiy makonlar asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xonliklar davri me'morchilik yodgorliklari — bu faqat tarixiy yodgorlik emas, balki milliy o'zlik, tarixiy xotira va madaniy merosning ajralmas qismidir. Ularni o'rganish va saqlab qolish bugungi kun avlodining tarixiy mas'uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Tursunov, E.Qobilov, B.Murtazoyev, "Surxondaryo tarixi" Sharq. (2004).
2. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Ahmedov Muhammad. Toshkent-1995.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent-2001
4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxiv materiallari.
5. Chag'oniyon tarixi. Toshkent islom universiteti-2002.
6. Termiz tarixidan lavhalar. "San'at jurnali" nashriyoti Toshkent-2008